

# «CHOTQOL» HAMISHA YODIMIZDA QOL!

(2-bet)



# G'IJDUVON KULOLCHILIK MAKTABIDA...

(8-bet)



G'AZNADIEV kollaji

# «CHOTQOL», HAMISHA YODIMIZDA QOLI!

## DAM OLIB, ZAVQQA TO'LDIK

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, bolalar-ning yozgi dam olishlari eng qizg'in pal-laga kirdi. Ular respublikamiz hudu-dida joylashgan bir-biridan go'zal, barcha sharoitlar muhayyo qilin-gan oromgohlarda miriqib dam olishmoqda. Ana shunday so'lim maskanlardan biri, bu yil o'zining tashkil etilganligiga 30 yil to'lishini nishonlayotgan «Chotqol» bolalar sog'lomlash-tirish oromgohidir.

«Chotqol» oromgohi tabiati go'zal, betakror makonda joylash-gan. U «Chorvoq» suv omboriga ya-qin. Unga Ugam, Ko'ksuv daryolarining suvi kelib quyiladi. Ma'lum bo'lishicha, bu su-klar eng toza va shifobaxsh sanalarkan.

**Har kuni erta tongda «Chotqol» oromgohining radiosi orqali yangraydigan yoqimli musiqa sadolari ostida uyg'onamiz.**

Badantariya mashqlarini bajargach, mazali nonushta qilamiz. Ozodalik soatidan so'ng esa davra suhbatlari, intellektual o'yinlar o'tka-zamiz. Qiziqarli sport musobaqalarida qatnashamiz, kutubxonadan foyda-lanamiz. Kunning ikkinchi yarmida guruhlararo turli ko'rik-tanlovlar bo'lib o'tadi. «Ma'naviyat va ma'rifat», «Jamoaviy ijodiy ishlar» kabi bellashuvlar orqali ballar hisoblanib, faol guruhlar rag'batlantiriladi. Kechki payt raqs, qo'shiq aytish muso-baqalari o'tkaziladi.

Jonajon o'lkamiz tarixi, tabiati, serviqor tog'lari, go'zal va betakror bog'-rog'lari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida keng tushunchalarga ega bo'lyapmiz. Eng asosiysi, har kunimiz maroqli, esda qolarli tarzda kechmoqda.

**Abdulloh FAYZULLAYEV, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi filologiya fanlariga IDUM 6-sinf o'quvchisi, Murodjon SOBIROV, Mirobod tumanidagi 60-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi**

moshalari uyushtirib turiladi. E'tiborga loyiq tarafi shundaki, bu yerda har yili 3-mav-sumda an'anaviy «Chotqol do'stlar chorlaydi» deb nomlangan bolalar ijodiy festivali o'tkazib kelinadi. Unda turli oromgohlarda hordiq chiqarayotgan iqtidorli bolalar tashrif buyurib, o'z ijodlarini namoyish etadilar.

Yaqinda O'zbekiston Res-publikasi mustaqilligining 25 yilligi va «Chotqol» bola-lar sog'lomlashtirish oromgohi tashkil etilganligining 30 yilligiga bag'ishlab, «Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!» shiori ostida tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu festivalga «Burchmulla», «Yoshlik», «Konstruktor», «Nihol», «Fazogir», «Pahla-von», «Metallurg», «Quyoshli» oromgohlarida dam olayotgan bolalar mehmon bo'lib kelib, o'zlarining chiroyli chiqishlari bilan qatnashdilar. Oromgoh rahbari Erkin Dehqonov ajoyib kecha uchun minnatdorchilik bildirib, esdalik sovg'ala-rini topshirdi.

Ta'tilda mazmunli hordiq chiqarib, jismonan va ma'nan kamol topayotgan, yangi o'quv yili-ga puxta hozirlik ko'rayotgan o'quvchilarga, go'zal yoz — o'taversin soz, deymiz.

**Aziza YO'LDOSHEVA,  
Nodira NAZAROVA**



Hozirgi kunda oromgohda 16 ta guruh mav-jud bo'lib, ularda oliy ma'lumotli, mehribon tar-biyachi va yetakchilar faoliyat yuritishmoqda.

«Ingliz tili», «To'qish», «Mohir qo'llar», «Tasviriy san'at» hamda turli sport to'garak-lari bolalar ixtiyorida. «Ma'naviyat va ma'rifat» xonasi va qiziqarli kitoblarga boy kutubxona bolalarning ma'naviy dunyoqarashini oshirish-ga xizmat qilyapti. Shuningdek, go'zal diyo-rimiz O'zbekistondagi bunyodkorlik ishlari haqida hikoya qiluvchi filmlar namoyish etilib, taassurotlar o'zaro muhokama qilinaypti. Yurt sha'nini ulug'lash, tinchlik, do'stlikning qadri-ga yetish kabi tuyg'ular yoshlar ongiga sing-dirilmoqda.

«Orasta qizlar» to'garagiga qatnashuv-

o'rgatib borilmoqda.

Oromgoh oshxonasida esa osh-pazlar tomonidan mazali taomlar tayyorlanyapti. Bolalarning cho'mi-lishi uchun katta va kichik suv hav-zasi mavjud. Ularning salomatligini nazorat qilish yuqori malakali shi-fokorlar zimmasida. Bu borada har mavsumda bir qancha sport muso-baqalarining o'tkazilishi doimiy an'anaga aylangan.

Oromgohda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan tashqari yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar tez-tez o'tkaziladi. «Maroqli hordiq» no-midagi qo'g'irchoq teatri, sirk to-

chi qizlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Turli mav-zulardagi suhbat-lar, viktorinalar, ko'rik-tanlovlar-ni o'tkazilishi qizlar tarbiyasida o'z ijodiy sama-rasini berayapti. S h u n i n g d e k, o'smir qizlarga uy-ro'zg'or tutish, taom tayyorlash, mehmon kutish odoblari



**Sarvarbek va Gulira'no Anvarova Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi Chekchualdoq qishlog'ida yashaydi. Sarvarbek Qo'qon shahridagi 41-umumta'lim maktabining 5-«J» sinfini tugatdi. Singlisi Gulira'no esa tumandagi 26-umumta'lim maktabining 4-sinfiga o'tdi.**

## SARVARBEK TOSHKENTGA KELADI

O'quv yilini a'lo baholarga yakunlagan bolajonlar yozgi ta'tilni buvi-joni Zulfiya aya Mahkamova rahbarlik qilayotgan fermer xo'jaligida ota-onasiga ko'maklashib, mazza qilib o'tkazishmoqda. Shu bilan birga, Sarvarbek besh yildan buyon shahardagi 5-bolalar musiqa va san'at maktabida pianino yo'nalishida saboq oladi. Ustoz Olga opadan «Etyud», «Sonata», «Bulba» kabi kuylarni maromiga yetkazib chalishni o'rganib oldi. Iste'dodli qahramonimiz respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etib keladi. Undagi iniluvchanlikni ko'rgan



mohir sozanda Jamolxon Madaminov uni qo'shimcha ravishda g'ijjak sinfi mashg'ulotlariga ham taklif etdi.

Akasiga havas qilgan singil ham tumandagi musiqa va san'at maktabida tashkil etilgan raqs to'garagiga qatnashadi. Bog'chadalik davridayoq ko'plab she'rlarni yod olgan Gulira'no keyinchalik o'zi ham she'rlar mashq qila boshladi.

Yosh ijodkor o'tgan o'quv yilida «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovidagi faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi. Yaqinda uning «Ko'klam kulgisi» she'riy to'plami chop etildi. Yosh ijodkor ushbu kitobni «Yurtimiz mustaqilligining 25 yillik to'yiga to'yona», deydi faxr bilan.

Yana bir gapni alohida aytmoqchi edik. Sarvarbek Anvarov yangi o'quv yilida o'qishni poytaxt maktablaridan birida davom ettirmoqchi. U kelajakda kinoaktyor bo'lishni orzu qiladi.

Eh, vadiylik aka-singil ijodkorlarga havasimiz keldi. Orzular fasli – yozgi ta'til baribir mazza-da!

Zarnigor MUSAYEVA



## TABIAT BAG'RIDAGI KUTUBXONA

**Sog'lomlashtirish oromgohi bizning maktabimizda ham tashkil etilgan. «Qaldirg'och» deb nomlangan mazkur maskanda miriqib hordiq chiqarmoqdamiz.**

Bu yerda dam olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo. Ayniqsa, e'tiborli jihati, bizda tabiat qo'ynida kutubxona tashkil etilgan bo'lib, kitobsevar o'quvchilar xohlagan kitoblarni bemalol, maysalarga yonboshlab olganlaricha mutolaa qilishlari mumkin. Mehribon va shirinso'z murabbiylarimiz esa bizning har tomonlama maroqli dam olishimiz uchun hamisha parvona bo'lishmoqda.

Tabiiyki, bunday yozgi oromgohlar biz o'g'il-qizlarning kuch yig'ib, yangi o'quv yilida a'lo baholarga o'qishimiz uchun puxta zamin yaratmoqda.

**Madina MAMASAIDOVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**

## DEVQAL'A

**Xorazm boy tarixga ega bo'lgan ko'hna diyordir.**

**Bu yerdagi har bir tepalik ostida bir tarix yotadi.**

**Hazoras p tumanidagi «Devqal'a» xarobalari ham shular jumlasidandir. Ushbu qal'a juda ko'p jang-u jadallarga, tarixning nurli va qora kunlariga guvoh bo'lgan.**

Bobomning aytishlaricha, «Devqal'a» xalq orasida yurgan afsonalarga ko'ra, bundan 3000 yil muqaddam devlar tomonidan bunyod etilgan ekan. Ko'hna qal'a devorlarining balandligi 20–22 m, eni 15 metrga teng. Uning to'rtta darvozasi bo'lib, ular bir vaqtning o'zida ko'prik vazifasini ham o'tagan. Yov hujum qilgan paytlarda xalq qal'a ichiga kirib, jon saqlagan. Unda bir yillik oziq-ovqat jamlangan bo'lib, ocharchilik, qurg'oqchilik yoki qamal vaqtlarida aholiga asqotgan. «Devqal'a»da yashovchi xalq ham dushmanga qarshi doimo bir yoqadan bosh chiqarib, birdamlikda harakat qilgan. Shu sababli ham bu zaminga ko'z olaytirgan yovuz niyatli kishilar qal'aga hujum qilishmas, qilishsa ham ichkariga kirolmay ortga qaytib ketishga majbur bo'lgan.

Qadim ajdodlarimiz har sohada bizga o'rnak bo'lishgan. Chunki ular hech qachon yovga bosh egmagan, dushmanga Vatani berib qo'ymagan. Men ana shunday buyuk tarixga ega xalqning farzandi ekanligimdan faxrlanaman.

**Marvarid RUSTAMOVA, Xorazm viloyati, Hazoras p tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi**

## Muhokama uchun mavzu

# SOG'AYIB KETSAM, boshqa bunday qilmayman

**Mahallamizda Ibrohim degan bola bor. O'zi yaxshi bola-yu, sal sho'xroq-da. U eshik qo'ng'iroqlarini chalib, qochib qolishni odat qilib olgan. Uy egalari «Kim ekan?» deb chiqsa, hech kim bo'lmaydi.**

Yaqinda Ibrohim keksa yoshli qo'shnisi Nazira xolaning qo'ng'irog'ini chalmoqchi bo'lib turganda, xolaning o'g'li Shuhrat aka kelib qolib, unga nasihat qilg'i:

– Onamning yoshlari ulug'. Biz ishda bo'lgan paytimiz qo'ng'iroq chalinsa,

zo'rg'a hassaga suyanib, eshik ochadilar. Shuning uchun bu qilg'ingni bas qil. Aks holda, sen bilan boshqacha gaplashaman, – dedi.

Ibrohim xo'p, dedi-yu, ertasi kuni yana shu odatini davom ettirdi. Avval Nazira xola, keyin Turob amakini va yana boshqalarni bezovta qilib, uy qo'ng'irog'ini chalib qochaverdi. Bir kuni shu qilg'ini qilib qochayotganda, uyog'i ostida yotgan toshga qoqilib, yiqilib tushdi. Yomon tushgan ekanmi, o'rnidan turaman deb urinib turolmadi.

Xullas, Ibrohimning oyog'i singan ekan. Ikki oydan so'ng oyog'idagi gips yechildi. Endi ko'chaga chiqsa ham qo'ltiqayoq yordamida chiqar edi. Bir kuni Ibrohim uyda yolg'iz qoldi. Shu payt ketma-ket ikki marta eshik qo'ng'irog'i chalindi. U arang o'rnidan turib, qo'ltiqayog'iga suyanib, darvoza oldiga bordi. Eshikni ochib qarasa, hech kim yo'q. Indamay uyga kirib ketdi. Sal turib yana ketma-ket qo'ng'iroq chalindi. U qiynalib tashqariga chiqsa, yana hech kim yo'q. Shu payt yodiga Shuhrat akaning so'zlari keldi. U bemor odam uchun bir qadam bosib bo'lsa-da, darvoza oldiga chiqish qanchalik qiyin ekanligini tushunib yetdi va «Tuzalib ketsam, boshqa bunday qilmayman», deya diliga mahkam tugdi.

**E'zoza MUHAMMEDOVA, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

## YURTIMIZDA BAYRAM SHUKUHI

Mustaqilligimizning 25 yillik bayrami munosabati bilan Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabi qoshidagi «Bulbulcha» nomli sog'lomlashtirish oromgohida tadbir bo'lib o'tdi.



Maskan rahbari Gulnoza Mansurxonova tadbirga kelgan mehmonlar va bolajonlarni «Eng ulug', eng aziz» bayramimiz bilan tabriklab, maktabida yozgi ta'limning mazmunli o'tishi uchun bolajonlarga barcha sharoitlar yaratilgani, turli to'garaklar muntazam ishlab turgani haqida so'zladi. Faoliyat yuritayotgan 18 ta to'garakning 8 tasi sport yo'nalishida ekanligi, ayniqsa, quvonarlidir.

Shuningdek, «Orasta qizlar», «Drama va qo'g'irchoq teatri» to'garak a'zolari ko'rgazmalarini, sport to'ga-

ragi a'zolari esa o'z chiqishlarini namoyish etishdi. Bayram tadbirida o'quvchilar o'zlarining quvnoq she'r, qo'shiq va raqslari bilan davraga fayz kiritdilar.

**Muzaffar AHMEDOV**

## TA'TILDA TO'GARAKKA!

Navoiy viloyati, Konimex tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi o'quvchi-yoshlar bilan gavjum.

O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli va maroqli tashkil etish, kasb-hunar ilk ko'nikmalarini shakllantirish hamda iqtidorilarni qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish borasida bu yer barcha imkoniyatlarga ega maskanlardan hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur dargohda «Badiiy ijodiyot», «Texnik ijodkorlik», «O'lkashunos va ekologiya» yo'nalishlarida 11 ta to'garak tashkil etilgan. «Gillamchilik», «Boshlang'ich texnik modelashtirish», «Yosh musavvir», «Kompyuter servis xizmati», «Yosh o'lkashunos», «Yumshoq o'yinchoqlar», «Mohir qo'llar», «Liboslar dizayni», «To'quv», «Folklor» hamda chet tili to'garaklari shular jumlasidandir.



Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ular onigiga milliy madaniyatimiz, milliy qadriyatlar ruhini singdirish pedagoglarning asosiy maqsadlaridan biridir. «To'quv» to'garagida 30 nafar o'quvchilar bo'lib, mashg'ulotlar uch guruhda tuman markazidagi 9-umumta'lim maktabi bilan hamkorlikda olib boriladi. A. Davletova, G. Savetova, N. Ismatullayeva singari havaskor to'quvchilar joriy yilda «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot festivalining tuman bosqichida faol ishtirok etishdi. Ayzada Davletova esa tanlovning viloyat bosqichida II darajali diplomni qo'lga kiritdi. To'garak rahbari Sholpan Qalidibekovning samarali mehnatlari qadrlanib, ish uslubi viloyat miqyosida ommalashtirilmoqda.

**Nozima QUDRAT qizi**



## «9 YILDAN SO'NG...»

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi «Orom» nomli 38-umumta'lim maktabining 7-«G» sinf o'quvchisi Yasmina Rixsiyeva mitti kitobchasini shunday nomlabdi.

Buning o'ziga yarasha sababi bor. Yasmina go'dakligidanoq, hali tili chiqib-chiqmay kattalarni «Nimaga tong otadi?», «Kun botganda quyosh qayerga ketadi?», «Sigir nega «mo'-mo'»laydi?» kabi savollarga ko'mib tashlardir. 3 yoshli chog'idayoq ana shunday savollariga buvisidan olgan javoblari asosida mitti kitobcha yozgandi. Oradan 9 yil o'tdi.

Yasmina biroz ulg'aydi, fikrlari teranlashdi, qiziqishlari o'zgardi. Endi uning qo'lida uyali telefon, noutbuk, internet. Muhimi, u bu texnik vositalardan to'g'ri maqsadda foydalanishni biladi. Kitobchasiga kiritgan maqola va she'rlarining mazmuni ham o'zgargan. «Oilamiz hayotidan bir kun» nomli maqolasida, «Saylovlar oldidan» nomli she'rida xuddi kattalardek mushohada yuritadi. Uning qalamiga mansub «Oila – mo'jaz Vatan» nomli ssenariy asosidagi sahna ko'rinishini sinfdoshlari maktab sahnasida namoyish etishdi. Yasminadagi

ijodkorlikka bo'lgan ishtiyoq kelajakda jurnalist bo'lib yetishishiga turki bo'lsa, ajabmas. Buni vaqt ko'rsatadi, albatta. Chunki o'smirlik davrining ilk bosqichiga qadam qo'ygan qizaloqning sevimli mashg'ulotlari juda ko'p. Liboslar dizaynerligiga qiziqadi. Poytaxtimizdagi 28-musiqqa maktabida musiqa sirlarini o'rganadi. She'rlarga kuy bastalashga urinadi. Yumshoq o'yinchoqlar to'qiydi, shirinliklar pishiradi. 5 yoshidan sportning suzish turi bilan shug'ullanib keladi. Bilganlarini singlisi Samiraga ham o'rgatadi.

Hayotdan ma'no-mazmun izlab yashayotgan Yasmina ulg'aygach qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, eliga, yurtiga faqat yaxshiliklarni sog'inib yashaydigan inson bo'lishiga ishonamiz. Chunki uning sof, beg'ubor qalbi adabiyotga, san'atga oshufta. Bunday qalbdan esa yomonliklarga aslo o'rin bo'lmaydi.

**Feruz JALILOVA**

Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi «Diyor» nomli 19-maktabgacha ta'lim muassasasida «Xayr bog'cha, salom maktab!» tadbiri bo'lib o'tdi.

## KO'ZING BAXTDAN PORLASIN!



Joriy yil ushbu maskandan 100 ga yaqin o'g'il-qizlar maktabning 1-sinfiga qadam qo'yadilar. Bog'chaning rus tili guruhi tarbiyachisi Nodira Nazirova shogirdlariga yil davomida bergan bilimi sinovdan yana bir bor o'tkazildi. O'g'il-qizlar rus tilida erkin so'zlash bilan birga metematika, rang-tasvir, she'rxonlikda o'zaro bellashdilar.

Surayyo Shoahmedova rahbarlik qilayotgan ushbu tarbiya dargohida farzandlarimiz barkamol avlod sifatida shakllanib, nutq, etika, sanoq, o'qish va yozishni o'zlashtirib, mukammal tarzda maktab ostonasiga qadam qo'yishga tayyor.

Tadbir yakunida yangi erak kitoblarining sovg'a qilinishi bolajonlarga ajoyib tuhfa bo'ldi.

**Xurshida SULAYMONOVA**



LESSON 98

Proverbs about peace

PEACE BRINGS HAPPINESS  
(Tinchlik baxt keltirar)

1) Peace it is happiness, health - is crown.  
Tinchlik - baxt, sog'lik - taxt.

5) War is calamity,  
Peace is repose.  
Urush - ofat,  
Tinchlik - farog'at.

2) Your peace it is your freedom.  
Tinchliging - hurliging.

6) Your neighbour is quiet and you are quiet.  
Qo'shning tinch - sen tinch.



7) People turn green with peace,  
Rain with the Earth.  
Tinchlik bilan el ko'karar,  
Yomg'ir bilan - yer.

3) Peace wins over war.  
Tinchlik urushni yengar.

8) People is peaceful of peaceful country.  
Yurti tinchning - eli tinch.

4) War is absence,  
Peace is satiation.  
Urush - yo'qlik,  
Tinchlik - to'qlik.

9) Garden blooms of peaceful people.  
Tinch elning bog'i gullar.

Sarvinoz NAZAROVA,  
the pupil of lyceum under  
Uzbek State World Languages University

MY FAMILY MEMBERS  
(Mening oila a'zolarim)

Complete the sentences with the correct words from the box.

architect, journalist,  
carpenter,  
librarian, tour guide

- At the moment, my father is designing a hospital. He's an architect.
- My sister Mary is probably putting books back on a shelf. She is a ...
- I've got to take a group of tourists round Bukhara later today. I'm a ...
- My mother Komila is interviewing a politician today. She works for a newspaper. She's a ...
- My brother Davron makes kitchen cupboard and dining room tables. He's a ...

Prepared by Dinora SHAKIROVA

REBUS

Solve the rebus.



1.4.



5.



1.7.8.



1.2.3.



1.2.3.



5.6.

ANSWER:      -



1.8.



1.



2.



3.



3.4.5.

ANSWER:

Prepared by Mokhira YO'LDOSHEVA

SUMMER HOLIDAY  
(Yozgi ta'til)

Athlete five has never thought about going on holiday. Like other pupils he also has an opportunity to have a rest and swim in the lake.

At last the holiday began.

— Oh, I also want to go on a trip, — said five looking at the map on the wall.

He could hardly get on the plane that was forty meters long. During the flight he shook from one side to another, because he didn't wear the belt. He wanted to open the window of the plane and look outside. Suddenly he dropped down. He went down on the weird island which looked like a jungle. One of the features of this island there were lazy pupils whose marks are bad.


Five swam on the river with a pleasure. He sunbathed. Then he played a ball with naughty children. «It's better play with children than to mark pupils' knowledge» said to himself.

— Give me a ball, — he shouted and suddenly that time a big cocoa dropped into his head.

— Oh my head, listen to me cocoas. Next year I will come with my friends and take your all fruits, — he said angrily. Five smoothed his head and remembered that little time was left till the holiday.

— It's time to go back to school. Athlete five got on one of the tourist's suitcase. He came to home. He was so happy. It's better to be in the copy books than to be in the island.

From that time he has never thought about going on holiday. If he wouldn't in our dairies, there was nobody who takes excellent marks in our classes!



Painter: SHAHNOZA

## BOSH QOMUS

Qo'limizda tug'imiz,  
Bu – bizning yurtimiz.  
Bosh Qomusda aks etgan,  
Bizning haq-huquqimiz.

U – xalqning xonishi,  
Baxtning kulib boqishi.  
Yurtimizga yog'ilur,  
Ozod elning olqishi.

Puxta, ravon har bobi,  
Ishlagan xalq arbobi.  
Bosh Qomusdan topilur,  
Har savolning javobi.

U – davlatning rivoji,  
Xalqning umid-ishonchi.  
Bosh Qomus baxti kulgan,  
Bolalarning quvonchil!



### (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

## MEN QULOQNING O'G'LIMANMI?!

O'zim nimani yomon ko'rsam o'sha voqea bo'ladi. O'gay akam, Abduxalil uchovimiz beshikning o'ng tomonida yotadigan bo'ldik. Xayriyat, men beshikni ushlab, kerak bo'lsa, tebratib-tebratib ham yotadigan bo'ldim. Xurракchi Abduxalil, ko'pincha tishini g'ijirlatib qo'yadigan o'gay akam qorinlari yaxshigina to'ygani uchunmi, zum o'tmay «pish-pish» qilib uyquning beozor mamlakatiga ketishdi. Singillarim ham avvaliga ko'rpa talashib, «Oyog'ingni ol, qo'lingni tort», deb olishib, oxiri «Ol, hammasi senga bo'la qolsin», deyishib, ular ham uyquga ketishdi.

Uxlay olmadim. O'zi men sal shunaqaroqman. Begona uyda hech uxlolmayman. Mehribon xolamnikiga mehmonga borib, Abdufattoh o'rtog'imnikida yotib qolganimda ko'zim hech yumilmaydi, yo'q, ko'zim ilinadi-yu, birpasda uyg'onib ketaveraman...

Ha, mayli, ular haqida keyin gapiraman. Hozir men sog'inib kelganim oyijonimdan zarur bir narsani bilib olmoqchiman. O'rtog'larim «Quloqning bolasi», «Quloqning yetimchasi», deb kalaka qilishadi. Dalalarga mol olib chiqqanimda, katta odamlar orasida bo'lganimda

«To'xtaboy boyvachchaning ho'kizi», «To'xtaboy boyvachchaning oti», «To'xtaboy boyvachchaning yerlari», deyishadi. Shunday deyishlariga nima sabab ekan, bilgim keladi. So'rasam, enajonim: «Katta bo'lganingda bilib olasan, tamom-vassalom». O'gay akam ham mehmonga kelganimda ko'p qiynaydi. Boyvachcha otangdan tillo tangalar qilgan, deyishadi, o'shandan uch-to'rttasini bergin, deb qistaydi. Nega unday deyishaveradi, hammasini bilgim keladi-da, oxiri mana bugun vaqti keldi. Oyijonimdan so'rab hammasini bilib olsam bo'ladi. Oyijonimdan otam haqida gapirib bering, nega uni quloq deyishadi, chindan ham quloqlari kattamidi, ana shularni so'rayverdim. Bilasiz-ku, men ham Erka kattamga o'xshab qaysarman, juda qaysarman, aytganimni qildirmagunimcha qo'ymayman. Oyijonim bo'lsa gapirgisi kelmaydi. Gaplashsak singillaring uyg'onib qoladi, deydi, uyg'onasa uyg'onar, deb beshikni ohista tebratib qo'yaman.

Uyimiz qorog'i, zimiston. Oyim ikkimiz o'rtadagi beshikning qoyasiga ikki tomondan boshimizni qo'yib olganmiz. Mehribon oyijonim goh-goh boshimni silab, goho peshanamdan o'pib-o'pib gapirayabdi. Xo'rsinadi, xo'rsinib yig'layotganga o'xshaydi.

– Ha, o'g'lim, azamatim, odamlar to'g'ri aytishadi, sen juda katta boylarning zurriyoti bo'lasan. Joying jannatda bo'lgur bobokaloningni

## VARRAK

Ertalab esdi shamol,  
Yugurdim men omborga.  
Varrak yasadim darhol,  
Berdim ukam Elyorga.

U varrakni uchirdi,  
Baland uchdi juda ham.  
U osmonni quchardi,  
Elyor edi shod, xurram.

**Shamshodbek ZULXONOV,  
poytaxtimizning Chilonzor  
tumanidagi 4-ixtisoslashtirilgan  
maktab-internati 6-«B» sinf  
o'quvchisi**



Bayonboy o'lponchi deyishgan ekan. Qo'qondagi bir-birini o'ldirib yurgan xonlarning solig'ini yig'adigan eng katta amaldorlardan bo'lgan.

O'sha bobokaloningni Botkan, Bo'jin, Isfara degan shaharlarda katta-katta saroylari bo'lgan ekan. Gilam to'qiydigan ustaxonalari, mag'izdan yog' chiqaradigan zavodlari bo'larkan. Ana shu boyliklarning hammasini bobokaloningning katta tuyalari Qo'qondagi xonlarning saroyiga eltib berarkan. Shunaqangi tuyalari ko'p ekan, katta ko'chadan o'tayotganida tuyalarning bo'ynidagi qo'ng'iroqlar jarang-jurung



## TAGOB QISHLOQ ERTAKLARI

qilishib, qishloq odamlarini uxlatgani qo'ymas ekan. Vaqti kelib, bobokaloningning umri tugab, undan qolgan boyliklar Nasridinboy bobonga qolgan ekan. Nasridinboyga xonlarning muhri bosilgan yaltiroq qog'ozlar qolgan ekan. Nasridinboy bobong otga ishqibozligidan hatto ovqatini ham ot ustida yeyarkan. Qishloqda uning «O'ttiz o'tli Nasridinboy», degan nomi chiqqan. Taqdirni qaragin, otdan yiqilib o'lgan.

– Ha, o'g'lim, uxlamayapsanmi? Endi uxlama. Aytay, hech bo'lmasa yarmini aytay. Aytmasam, bu so'zlar ichimda qolib, bag'rinni qon qiladi. Shu kunlarda ham qon-qon yig'lab yashayapman.

To'satdan zamon o'zgaribdi. El-yurt talato'p ichida qolibdi. Sovuq mamlakatdan qilich yalang'ochlab, zambaragini o'qlab askarlar bosirib kelib, butun yurtimizni vayronaga aylantirishibdi. Yig'lamagan odam qolmabdi.

– Oyjon, siz o'shanda qayerda edingiz? – deb so'rayman.

– Ey, azamatim, – ko'zlaridagi yoshni artib, xo'rsinib-xo'rsinib yana gapira boshladi oyijonim. – Ey, azamatim, uh tortmasa, yig'lamasa bo'lmaydigan og'ir zamonlar bo'lgan ekan. Bu yurti senlarga bermayman, o'z yurtingga ket, yo'qol, deb qarshilik ko'rsatganlar qo'lga panchaxa, bolta olib bosh ko'tarishibdi. Bu bechoralarni, sen bosmachisan, sen birovning haqqini yeb boyigan tekinox'rsan, deb qarshilik ko'rsat-

## MUSTAQIL O'ZBEKISTON

Qo'rg'onimiz mustahkam,  
Tinchlik, do'stlik bunda jam,  
Topilmaysan sira kam,  
Yashnasin O'zbekiston,  
Yashnayver, O'zbekiston.

Shundayin go'zal o'lkam,  
Ham chiroyli, ham ko'rkam,  
Posbonlari mard, o'ktam,  
Yashnasin O'zbekiston,  
Yashnayver, O'zbekiston.

Hech kimdan emasmiz kam,  
Deydi Yurtboshim har dam,  
Obod Vatanimiz biz ham,  
Yashnasin O'zbekiston,  
Yashnayver, O'zbekiston.

**Sevara BOTIROVA,  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on  
tumanidagi 26-umumta'lim  
maktabining 8-«V» sinf o'quvchisi**



ganlarni otib tashlar ekan. Miltiqlardan, zambaraklardan o'qqa tutisharkan. Es-es eslayman, Otabel degan endigina 15 yoshga kirgan akam bo'lar edi. Uni ham bosqinchilar «O'timga yem ber, yeyishimga ovqat ber», deyishib, bermasa qilich bilan chopganlarini hali-hali eslayman.

– Yig'lamang, oyijon, yig'lasangiz men ham yig'layman, – deyman betoqat bo'lib.

– Mayli, bolajimam, biroq yig'lab olganim yaxshi, yelkamdagi yuk yengillashadi. Bilasanku, ko'z yoshi kishining g'am-g'ussasini yuvib ketadi. Bo'lmasa, g'am kishini gapirgani qo'ymaydi.

Mayli, o'g'lim, hammasini aytolmayman.

Enajoning ertaklarini eshitgansan-a, o'sha ertaklarda qishloqqa bostirib kelgan odamxo'r devlar bilan yurtimni, qishlog'imni himoya qilaman, deb yeng shimirgan pahlavon yigitlar olishganini eshitgansan. Qishloqlarimizda ham bosqinchilar bilan qo'rboshi yigitlar o'rtasida har qarich yer uchun qaqshatqich urushlar bo'lgan.

Bosqinchilar o'zlarining yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun qarshilik ko'rsatganlarni bir boshdan qilich bilan chopib ketisharkan. Qishlog'imizda uchta qabr bor. Ana shu qabrlar yonidan o'tayotganingda duo qilib o'tgin. Unda yurtimizni birovga bermayman, deb qurbon bo'lgan yigitlar yotibdi.

Ha, bahona topib yurtimizni egallab olmoqchi bo'lganlar boylarni navbati bilan o'z yurtidan haydab, Rossiyaga, Ukrainaga, yana ham uzoq o'lkalarga quloq bo'lding, deb jo'natib yuborishgan.

Otangni ham, mirshablar kelib idoraga borasan, deb qo'lini orqasiga qayirib olib ketishdi. Idorada boylarni quloq qilish to'g'risida qaror yozishayotgan ekan. Bechora otangni ham ro'y-xatga kiritib qo'yishgan ekan... Lekin yurtimizda sadoqatli kishilar ko'p ekan. To'raqul, Tursunboy, Ro'zmat polvon amakilaring yugurib kelib «Sora buvi qimmatbaho narsalaringdan bir xilini yashiraylik, To'xtavoy Ukrainaga quloq bo'ldi», deyishibdi. Hali-hali esimda, kechasi bilan uxlamay bobongdan qolgan kumush idishlardan bir qismini qayerlargadir olib borib ko'mib kelishdi.

Jon bolam, battarroq yig'laydigan paytimiz keldi. Qishlog'imizda shunday katta dod-voy boshlandi-ki, asti qo'yaverasan. Xalil qori bilan otangni qancha boyligi bo'lsa talon-taroj bo'ldi. Qo'sh darvozali hovillardan biriga Dilijon o'rtog'ing bor-ku, o'shalar kirib kelishdi. Uyimizda nimaiki bo'lsa, otangning o'zidan tortib olingan, g'ildiragi katta aravalarga yuklashayapti. Hatto ishonang yotib yurgan ko'rpamiz ham, kiyib yurgan to'nimiz ham qolmadi. Bechora otangni qo'li bog'langan. Ikkovimizni Holva amaking boshqarib yurgan aravaga chiqarishib, Qo'qonga olib ketishdi. Oldimizda qizil shapkali ortimizda yana shunaqa qilich taqqan mirshablar shunday qilib bizni Qo'qonga haydab kelishdi.

(Davomi bor)



## NAFOSAT OLAMINING JAJJI MALIKASI

**Yurtimizda mustaqillik sharofati bilan yoshlarimizga barcha sohada keng imkoniyatlar yaratilgan. O'g'il-qizlarimiz o'qishda, sportda katta yutuqlarga erishayotganliklari nihoyatda quvonarli.**

**Bugun sizlarga hali yosh bo'lishiga qaramay, sport sohasida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgan Niginabonu XUDOYBERDIYEVA haqida hikoya qilmoqchimiz.**

H. HAMIDULLAYEV olgan surat



9 yoshni qarshilayotgan Niginabonudagi sportda bo'lgan havas maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan otasi Shohrux akadan o'tgan bo'lsa, ajabmas.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi bo'lgan Niginabonu to'rt yoshidan boshlab sportning akrobatika turi bilan jiddiy shug'ullanib keladi. Mashg'ulotlarni dastlab «Olimpiya zaxiralari» sport to'garigida boshlagan qizaloq, bugun kunda poytaxtimizning Yunusobod tumanida joylashgan O'zbekiston Gimnastika federatsiyasida sport akrobatikasi bo'yicha tahsil olmoqda.

Joriy yil may oyida poytaxtda o'tkazilgan «Gimnastrada» tanlovida u o'qiyotgan 10-umumta'lim maktabi jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, yosh sportchimiz shahar miqyosida o'tkazilgan akrobatika bo'yicha yoshlar chempionatida 1-o'rin sohibasi bo'lib, iyun oyida sport akrobatikasi bo'yicha Qozog'iston Respublikasining Pavlodar shahrida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Quvonarlisi, ushbu turnirda ham Niginabonu o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqlab, yakunda faxrli 3-o'rinni egalladi.

– Gimnastika federatsiyasida dugonalarim – Yasmina, Madina va Jasmina bilan birgalikda malakali murabbiy Damir Shaipovdan saboq olib kelyapmiz, – deydi Niginabonu. – Kelajakda jahon chempioni bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini ko'kka ko'tarish orzusidaman.

Aytganday, qizaloq «O'zbektelefilm» studiyasida suratga olingan «Shohsupa» va «Do'stlik afsonasi» filmlarida suratga tushishga ham ulguribdi.

– Bizning bolalik davrlarimizda bunday imkoniyatlar yo'q edi. Shukurki, Mustaqillik tufayli farzandlarimizning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sport tufayli qizimiz dunyo ko'rib, turli musobaqalarda qatnashish baxtiga erishdi, – deydi qizaloqning onasi Dilnoza opa Xudoyberdiyeva.

Yosh sportchi qizimiz shu yilning kuz faslida Rossiya va Germaniya davlatlarida o'tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etishini eshitib quvondik va yurtimizga g'alaba bilan qaytishini tiladik.

Dilorom HOTAMOVA

**Shunqor deganda, ko'z oldimizda mard, qo'rqmas, botir inson siymosi jonlanadi.**

## SHUNQORLAR BELLASHGANDA...



«Shunqorlar» harbiy musobaqasini o'tkazish yil sayin an'anaga aylanib bormoqda. Har yili 4 ta bosqichda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'rtasida tashkil etilayotgan musobaqa yoshlarning ma'nan va jismonan barkamol bo'lib voyaga yetishlarida xizmat qilmoqda. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi o'рта maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasida bo'lib o'tgan navbatdagi musobaqa qizg'in bahslarga boy o'tishida tu-

man mudofaa ishlari xodimi Sherzod Hikmatov va sardor, Respublika olimpiya zaxiralari kolleji rahbari Shuhrat Polvonovning hissasi katta bo'ldi. Musobaqada 160 nafar sportchidan iborat 10 jamoa ishtirok etishdi. Natijalarga ko'ra, 2-Toshkent yuridik kolleji o'quvchilari 1-, TDIU qoshidagi litsey vakillari 2-, Sirojiddinov nomidagi O'ZMU litseyi shunqorlari 3-o'rinni egallashdi.

Tadbir yakunida mudofaa ishlariga qarashli ashula va raqs ansambli konsert dasturi kechaga o'z-gacha fayz kiritdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

**Bugungi kunda yoshlarimiz sport sohasida yuksak shohsupalarga ko'tarilib, xalqimizning g'urur va iftixorini oshirmoqda.**

## YUKSAK MARRALAR POYDEVORI

Bu borada Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ularga qanot bo'lmoqda.

2016-yil 20-iyul holatiga ko'ra jamg'arma ko'magida 16 ta xalqaro sport musobaqasida sportning 10 turidan 150 nafar (43 nafari qizlar) o'quvchi-yoshlar ishtirok etib, jami 192 (92 ta oltin, 58 ta kumush, 42 ta bronza) ta medallarni qo'lga kiritishdi. Ko'rinib turibdiki, yarim yilda shuncha natijaga erishgan bo'lsak, yilning oxirigacha bizni qanchadan qancha zafarlar kutmoqda.

Jamg'arma faoliyati yo'lga qo'yilgandan buyon, jumladan,

2003–2015-yillar davomida 2 ming 205 ta, bulardan 1ming 922 ta sport inshootlari, 283 ta bolalar musiqa va san'at maktablari hamda 96 ta suzish havzalari qurilib, foydalanishga topshirilgan. 2016-yilda jamg'arma tomonidan jami 269 ta inshootlarda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borish ko'zda tutilgan, shulardan 18 tasi bolalar musiqa va san'at maktablari hamda 249 ta sport inshootlaridir. Bu O'zbekistondagi har bir o'g'il-qiz yuksak g'amxo'rlik ostida e'tiborda ekanligini ifodalaydi.

Charos XUSHVAQTOVA

## TENNISCHILAR MUVAFFAQIYATI

**Buxoro shahridagi 2-bolalar va o'smirlar sport maktabida yoshlarning ma'naviy olamini boyitish borasida bir qator madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.**



Shahnoza



Norjon

«Ota-onani e'zozlash va salomlashish odobi», «Ustoz – otangdek ulug'» mavzularida suhbatlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. BO'SM uslubchilari X. Ochilov va B. Yusupovlar har oyda «Sportchi gigiyenasi», «Vrach nazorati», «O'z-o'zini nazorat qilish», «Giyohvandlik – salomatlik kushandasi», «Tamaki har qanday ko'rinishda xavfli» mavzularida suhbatlar o'tkazishi yaxshi an'anaga aylangan.


Maskanda so'nggi uch yilda tayyor sport ustaligiga nomzod, 300 dan ortiq razryadli sportchilar tayyorlandi. Yaqinda maktabda katta tennis va stol tennis bo'limlari tashkil etilib, hozirda 16 nafar murabbiylar mashg'ulotlar olib borishmoqda.

Yosh tennischilar shu kunga qadar bir qator yutuqlarni qo'lga kiritishga ham ulgurishdi. Sarvinoz Muzaffarova, Norjon G'iyasova, Mavluda Mirxanova, Muhammadamin Abdurasulov, Shamshod Nabiyev, Ilhom Farmonov, Farangiz Muhammadiyeva, Shahnoza Bahodirovaning turli musobaqalardagi zafaridan ustozlar ham mamnun.

Ulug'bek SAIDOV

# G'IJDUVON KULOLCHILIK MAKTABIDA...

**Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi 10-bolalar musiqa va san'at maktabida o'quvchilar ko'plab hunarlar qatori kulolchilik sirlarini ham puxta o'rganishmoqda.**



2011-yilda G'ijduvon kulolchilik maktabining 7-avlod vakili Obidjon Narzullayev tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur bo'limda yosh hunarmandlar turli buyumlarni yasashmoqda. To'g'arak a'zolari yaratgan san'at asarlari yurtimizda o'tkazilgan ko'plab ko'rgazmalarda namoyish etilgan. O'tgan yilning o'zida 5-umumta'lim maktabidan 4-sinf o'quvchisi Ozodjon Narzullayev «Kamalak yulduzlari» iqtidorli bolalar Respublika ko'rik-tanloving tasviriy va amaliy san'at yo'nalishida kulolchilik bo'yicha viloyatda 1-o'rinni egalladi. 6-sinf o'quvchisi Nafisabonu Narzullayeva esa kashtachilikda viloyatdagi dugonalaridan ustun keldi. Shuningdek, iqtidorli qizcha 2015-yilning dekabrda poytaxtda o'tkazilgan ko'rgazmada «Eng yosh ishtirokchi» nominatsiyasi diplomini qo'lga kiritdi.

– O'zim Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutining kulolchilik yo'nalishida tahsil olganman, – deydi to'garak




rahbari Obidjon Narzullayev. – Shogirdlarimning bugungi kundagi bilim darajasini ularning yoshidagi davrimga solishtirganimda, hozirgi yoshlarimning nechog'lik iste'dodli ekanligini ko'raman. Bu esa davlatimiz tomonidan ularga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar samarasi, demakdir. Nafisabonu va Ozodjondan kelajakda haqiqiy san'at ustalari yetishib chiqishiga ishonaman.

**Rustam NURMATOV**

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### ANTIQA KROSSVORD

Shakl kataklardagi «a» harflari bilan kesishadigan beshta harfli so'zlarni eniga va bo'yiga yo'nalishida yozish bilan krossvord hosil qiling.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

**Yaponiyaning Vaseda shahridagi o'rta maktablardan biriga Pepper robot-gumanoidi rasmiy ravishda o'qishga qabul qilindi.**

## ROBOT MAKTABGA BORADI

Ma'lumotlarga ko'ra, Pepper robot-gumanoidi rasmiy ravishda o'qishga qabul qilindi. Maktabga uning qabul qilinishi munosabati bilan tadbir uyushtirildi. O'qituvchilar tahsil davomida turli anglashilmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun bolalarga «yangi sinfdosh»ni yaxshi o'rganib chiqish va u bilan istalgan mavzuda suhbat qurish imkonini berdilar.

Pepperning aytishicha, u maktabga qabul qilinishini umuman kutmagan ekan. Shuningdek, yangi o'quvchi imkon qadar yaxshi o'qishga harakat qilishini bildirgan.

U nafaqat yapon, balki ingliz tilida ham bimalol gapira oladi. Shuning uchun ham robotdan ingliz tilidagi darslarda keng foydalanish rejalashtirilgan.

Pepper Aldebaran Robotics va SoftBank kompaniyalarining qo'shma loyihasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilarning aytishicha,



robot suhbatdoshining ovoz ohangidan uning nimani his etayotganini aniqlay oladi. Insonlar bilan birga hayot kechirishga moslashtirilgan robot suhbatdoshini tushunadi va mos ravishda maslahatlar bera oladi.

**Internet materiali asosida Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi**

**Muassislar:**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

**Bosh muharrir**  
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

1-avgust 2016

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Svetlana INOMOVA, Bahodir G'ANIYEV, Murtazo SULTONOV, Vahobjon RAJAOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALLOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Dilrom HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchidizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz Adadi - 26 389 Buyurtma - S 6621

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08